



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI




No11
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 586 sahifa,
4-noyabr, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayeva X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Oilaning maktabgacha yoshdagi bolalar estetik tarbiyasidagi o'rni	24
Abdullayeva Ma'sudaxon Abdubannayevna	
Bo'lajak informatika o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga metodik tayyorlash texnologiyalari	27
Abdubannoyeva Muxlisaxon Iqboljon qizi, Abdullayev Alibek Qodiraliyevich	
Oliy ta'lim muassasalarida bulutli xizmatlardan foydalanish zaruriyati	30
Abdullayev Alibek Qodiraliyevich, Turdaliyeva Muslimaxon Jahongir qizi	
Raqamli texnologiyalar yordamida fortepiano chalishni o'rgatish metodikasi	34
Abduvaxobova Nilufar Abdumannon qizi	
Maktabda fizika fanini o'qitishda innovatsion yondashuv	38
Alinazarova Mahfuza	
Tasavvufdagi "komil inson" konsepsiyasining hozirgi ta'lim tizimida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv sifatida talqini	43
Aqilxonov Saidolimxon Abdurashid o'g'li	
Tabiiy-ilmiy savodxonlikni shakllantirish omillari va pedagogik shart-sharoitlar	48
Choriyeva Gulbaxor Shotemirovna	
Robototexnika fanini o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanib mustaqil ta'limni tashkil etish	53
Elmonov Sirojiddin Mamadiyarovich	
Xalqaro baholash dasturlarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash bo'yicha jahon tajribasi	58
Ergasheva S. T.	
Boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlar orqali o'quvchilarning kognitiv salohiyatini rivojlantirish	61
Eshmamatova Dilnoza Jovli qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy salohiyatini oshirishda tarbiyachi mahorati	64
Karimova Gulzodaxon Marufjon qizi	
Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishni takomillashtirish	68
Hojikarimova Gulasal Tadjaliyevna	
Xorijiy talabalarga o'zbek tilini o'rgatishda elektron platformalar yaratish	71
Jo'rayeva Matluba	
Bo'lajak o'qituvchilar uchun raqamli ta'lim muhitini modellashtirish va uning samaradorlik omillari	74
Komilova Z. X.	
O'qituvchi kasbiy faoliyatida muloqot madaniyati	80
M. Yu. Mahkamova	
Psixologiya fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va talabalarda tahliliy fikrlashni shakllantirish masalalari	86
Madazizova Dilfuza Raxmatullayevna	
Integrating Listening and Speaking Skills in ESP (English for Specific Purposes) Classes	90
Madina Tilavova	
Bolalarni maktabga tayyorlash jarayonida neyropedagogik yondashuvlar	94
N. O. Saidova	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida radiologiya fanini o'qitishda raqamli texnologiyalarning metodologik roli	99
Nazarova Gulchexra Shuxratdjonovna	
Ijodkorlik tushunchasining mohiyati va uning ta'limdagi roli	103
Ochilova Dilbar Isroilovna	
Alaliyani boshqa nutqiy nuqsonlar bilan farqli xarakteristikasi	108
Oripova Zilola	
Ingliz tilini o'qitishda suggestopediya metodini joriy etishning samaradorligi	113
Pulatova Sitora Abdurazzoq qizi	
Oliy ta'lim muassasalari menejerlarining kasbiy-boshqaruv kompetentligi tushunchasi va uning tarkibiy qismlari	118
Qarshiboyev Sharof Egamnazarovich	
Koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirishning yosh badmintonchilar texnik-taktik tayyorgarligiga ta'siri	122
Qurbanova Ilmira Alisher qizi	



Blended Learning	125
Quvandikova Xadicha	
Fizika darslarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish	129
Raxmanov Valijon Turdaliyevich, O'razaliyev Alijon Xasan o'g'li	
“Qurilish jarayonlari texnologiyasi” fanida loyihalash kompetentligining tarkibiy tuzilmasi va uni raqamli ta'limga moslashtirish	135
Raxmonova Nazokat Umaraliyevna	
Vitagen texnologiyalar asosida talabalar mediamentalitetini rivojlantirishda sun'iy intellekt (AI) dasturlaridan foydalanishning tahliliy modeli	140
Rustamova Nodira Rustamovna	
Talabalarda kooperativ ta'lim asosida motivatsiyani rivojlantirish usullari	145
Sitora Toshmatova	
STEAM yondashuvi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ kompetensiyani shakllantirishning zaruriyati	149
Tashibekova Munajat Xoshimovna	
Musiqqa ta'limining pedagogik asoslari va metodik tizimi	153
Toshpulatova Saida Kuzibaevna	
Texnologiya fanini o'qitishda eng samarali metodlardan foydalanish	158
Turdiyeva Shahzoda Eshdavlrat qizi	
Enhancing University Students' Self-Directed Learning Through Edtech Tools	161
Ulasheva Lobar	
Fanlararo loyiha ishlarini tashkil etish orqali o'quvchilarning dizayn fikrlash salohiyatini oshirish	164
Valiyeva Nargiza Athamboyevna	
Alohida ta'lim ehtiyojiga ega o'quvchilarning kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik-psixologik asoslari.....	169
Xakimova Sarvinov Sharifjon qizi	
Sun'iy intellekt asosida yaratilgan ta'lim platformalari: samaradorlik tahlili va pedagogik yondashuvlar	173
Xanbabayev Hakimjon Ikramovich, Erkinov Jasurbek Hasanjon o'g'li	
Tasavvufdagi “muhosaba” va “tafakkur” amallarining o'z-o'zini refleksiya metodlari sifatida qo'llanilishi	176
Xoshimov Nuriddin Mamadaliyevich	
Milliy sport va ommaviy o'yinlarning badiiy-estetik ahamiyati.....	182
Yaxyayeva Sojida Abdurahimovna	
Ota-ona mehriining bola psixologiyasiga ta'siri	185
Yulchiyeva Shohsanam Dilshod qizi	
Nutq rivojlanishi orqada qolgan bolalarda qo'llaniladigan innovatsion usullari samaradorligi	189
Ahmedova Nargiza Muzaffarovna	
Факторы, сдерживающие развитие науки в контексте требований к диссертационным работам	193
Зайналов Жахонгир Расулович, Нурмухамедов Аббос Мамадалиевич, Шадманов Камолиддин Кажакджанович, Самигова Нодира Хамидуллаевна	
Структура и стратегии развития предметных компетенций	197
Наимова Мафтунабону Файзулложоновна	
Психологическая консультация: современная практика, задачи и перспективы развития	203
Раупова Шохида Ахроровна	
Подготовка будущих педагогов к инклюзивному обучению детей с ограниченными возможностями здоровья: задачи и перспективы	207
Сайфутдинова Насиба Нурматовна	
Формирование иноязычной грамотности у курсантов военных вузов: социально-психологические факторы.....	211
Сулейманова Нилуфар Камилловна	
O'qituvchi shaxsiy kompetensiyasining mohiyati va pedagogik faoliyatdagi o'rni	214
Abdiraxmonova Guliston Muzaffar qizi	
Bolalarda axloqiy qadriyatlarini shakllantirish jarayonining milliy va umuminsoniy tamoyillari	218
Abdumutalipova Gulshodaxon Nurbek qizi	
Fuqarolik jamiyatida huquqiy madaniyat va uni rivojlantirish jarayonlari	221
Abdusalimova Shaxnoza Quduratullayevna	
Ta'lim menejmenti tizimida o'qituvchining nutq madaniyatini rivojlantirish strategiyalari	224
Abduxalilova Iroda Nozimxonovna	

MUNDARIJA	O'zbekistonda yoshlarni ijtimoiy-pedagogik hamkorlikda tarbiyalashda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"ning ustuvor vazifalari 229 Abirova Umida Nazarovna
So'z	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini inklyuziv ta'lim sharoitida differensiyalashtirilgan dars mashg'ulotlarini tashkil etishga o'rgatish (kompetentligini shakllantirish/rivojlantirish) usullari..... 232 Adhamova Diyora Sanjar qizi
So'z	Musobaqa faoliyati samaradorligini oshirishda sambochilarning energiya sarfi va tiklanish mexanizmlari tahliliy 239 Tangriyev Abdukarim Tovashevich
So'z	Aksiologik yondashuv asosida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining harakat faolligini takomillashtirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati 244 Hafizov Shahriyor Shavkatovich
So'z	Bo'lajak tarbiyachilarning transversal: tanqidiy va innovatsion fikrlash kompetensiyalari 248 Jaloliddinova Maftunaxon Mahmudjon qizi
So'z	Axborotning gnoseologik mohiyati 256 Kamolova Munojatxon Jaloldinovna
So'z	Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish yo'llari 259 Mamatova Aziza Bo'riboevna
So'z	Akademik litseylarda kimyo fanini o'qitishda raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari 262 Maxamadiyev Sharofiddin Jumaboyevich
So'z	Pedagogik oliy ta'limda talabalarning kasbiy ijtimoiylashuvini korporativ madaniyat asosida rivojlantirish metodikasi..... 267 Maxkamova Dilafuz Aliyevna
So'z	Bo'lajak o'qituvchilar uchun xorijiy tillarni o'qitishda lingvomadaniy yondashuv 271 Normamatova Kamola Gulmamat qizi
So'z	O'zbek tili izohli lug'atida iboralarning grammatik tavsifi (bosh komponentli iboralar misolida)..... 274 S. Sh. Azamatova
So'z	Oila instituti va gender tenglikni ta'minlashning ijtimoiy-huquqiy muammolari 277 Salayeva Aziza Muhammadmurot qizi
So'z	Gender yondashuv asosida talaba-qizlarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning namunaviy mezonlari 282 Xolova Mohigul Shavkatovna
So'z	Pedagogika yo'nalishi talabalari huquqiy savodxonligini rivojlantirish metodlarini takomillashtirish 287 Xudoyberganov Atham
So'z	Boshlang'ich sinf o'quvchilarida leksik komponentlikni TRIZ texnologiyasi yordamida rivojlantirish 291 Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna, Fayzullayeva Nazokat Uchqun qizi
So'z	Цифровизация и трансформация образования как социально-педагогическое явление 295 Кадирова Наргиза Азаматовна
So'z	Методика формирования креативного мышления у студентов-филологов на основе проблемно-ориентированных заданий (на материале английского языка) 298 Мамырбаева Дина
So'z	Структура и стратегии развития предметных компетенций 304 Наимова Мафтунабону Файзулложоновна
So'z	Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda morfologik kompetentlikni shakllantirish 308 Ganiyeva Shodiya Azizovna
So'z	Модель "4+1+1" как ключевой механизм в системе практической подготовки учителей музыки..... 313 Мухитдинова Малохатхон Саиджабборовна
So'z	Tarbiya fanini o'qish samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish 317 Nazarova Nasiba Abdullayevna
So'z	Tarbiyachining kasbiy psixologik xususiyatlari 320 Shamshetova Anjim Karamaddinovna
So'z	Boshlang'ich ta'limda tarbiya nazariyasi va metodologiyasi 323 Bo'ronova Iroda Bo'ronovna
So'z	Yosh dzyudochi qizlarning mashg'ulotlar jarayonida jismoniy tayyorgarligini oshirish texnologiyalari 327 Matmuratova Iroda Baxtiyor qizi
So'z	"Odob us-solihin" asarida yoritilgan axloqiy-didaktik g'oyalar va uning pedagogik mazmuni 332 A. N. Nusratov
So'z	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy kompetentligini takomillashtirishning metodik asoslari 336 Xolmatov Pardaboy Qoraboevich, Abdurasulova Dilnoza



Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatida loyihalashtirishning o'rni	342
<i>Abdusattorova Go'zalxon Abdulxabib qizi</i>	
Tibbiyot va frazeologiya inson omilida	346
<i>Achilov Muzaffar Norquliyevich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida fazoviy tasavvurlarni rivojlantirishda matematikaning ahamiyati	349
<i>Mamasaidova Muhabbat Abdulalom qizi, Akbaraliyeva Marjona Xurshid qizi</i>	
Ekoestetik kompetensiyani shakllantirishning xorijiy va milliy tajribalar tahlili	354
<i>Alijonova Maftuna Maxamadjon qizi</i>	
Pedagogik jarayonda talabalarda qadriyatli munosabatlarni shakllantirish mexanizmlari	359
<i>Alikulova Muxayyo Sherovna</i>	
Ingliz ritsarlik romanlarining lingvopoetik tahlili	362
<i>Durdona Boychayeva, Aliyeva Elmira</i>	
Maktabgacha ta'limda estetik tarbiya berishning pedagogik asoslari	365
<i>Altibayeva Gulbaxor Majitovna</i>	
Kasbiy kompetensiya tushunchasining mazmuni mohiyati va tarkibiy tuzilmasi	369
<i>Axmadjonova Jasmira Jamshid qizi</i>	
Developing Writing Competence Among CEFR B1 and Ielts Learners Experiencing Difficulties in English Language Acquisition	374
<i>Ayturayev Majid Mavlankhanovich</i>	
Ta'lim jarayonida ijtimoiy intellektni rivojlantirishning milliy qadriyatlarga asoslangan modeli	378
<i>Azamov Umarxon Xayxonovich</i>	
Complications in Teaching Argumentative Speech to Students in Grades 8–9	383
<i>Buribayeva Aziza Ismatillaevna</i>	
Interfaol o'yinlar orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni shakllantirishning pedagogik asoslari	386
<i>Buriyeva Aziza Nematovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maktabgacha katta yoshdagi bolalarning ijodiy faolligini shakllantirish	390
<i>Davronova Sevinch</i>	
O'quvchilarda milliy va umummadaniy kompetensiyani rivojlantirishda maqollardan foydalanish bo'yicha manbaalar tahlili	394
<i>Boltayeva Barno, Eliboyeva Surayyo Abdulkarim qizi</i>	
Social Roots and Psychological Consequences of Domestic Violence	399
<i>Dumarova Gulmira Kozimbekovna, Mamadaliyeva Gulmira, Sultonova Zulhayo</i>	
The Transversal-Methodical Competence of a Preschool Educator is the Foundation of Effective And Quality Education	402
<i>Ergasheva Barno Ziyavitdin kizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning innovatsion yo'llari	406
<i>Erkinova Mehriniso Ro'ziboyevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini oshirish strategiyalari	411
<i>Eshonkulova Hilola Rajab qizi</i>	
Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqotning bilish faoliyatiga ta'siri	415
<i>Habibova Shyira Baxtiyrovna</i>	
Ruhiy rivojlanishi sustlashgan boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish buzilishlarini aniqlash va bartaraf etish	419
<i>Ikromova Sarvinoz Siroj qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda riskologik kompetentlikni shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	424
<i>Jabborova Dilafuz Furqatovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda chet tili o'rganish jarayonida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning psixologik asoslari	428
<i>Jurayeva Sug'diyona Shamsiddin qizi</i>	
Transforming Education: The Impact of Emerging Technologies on Modern Pedagogical Practices	431
<i>Kadirova Ferangiz Himmatillo qizi</i>	
Salomatlik etikasi konsepsiyasi va pedagogik madaniyat – talabalar ma'naviyati va dunyoqarashini shakllantirishdagi roli	435
<i>Kamalova Yoqutxon Bahodirovna</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	Tarbiyachilarning kasbiy mahoratini takomillashtirish va pedagogik faoliyat samaradorligini oshirish omillari 439 Kenjayeva Dildora Terkashevna Maktab ta'lim tizimida innovatsiyalarning o'rni va ahamiyati 443 Kistabayeva Gulchexra Djurakulovna Kichik maktab yoshi davrida o'quv faoliyati va o'quv motivlarining shakllanishi 448 Latifa Zarifovna Korayeva Maktabgacha ta'lim tizimining raqamlashtirilishi: xalqaro tajriba va istiqbollar 451 Mahmudova Zulfiya Homidovna, Hoshimova Dilnoza Boymirzoevna Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini dizayn tafakkurga o'rgatishda STEAM yondashuvining didaktik imkoniyatlari 454 Mamadaminova Munisa Maxmudjon qizi, Boboxonova Shodiyona Rustam qizi Tabiatni asrash – kelajakni asrash: Buxoro misolida 459 Mardonova Saodat Muzaffarovna Bo'lajak pedagoglarda o'z-o'zini baholash kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish 463 Meyliyeva Nafosat Gulomovna Sun'iy intellektning ta'limda kognitiv va metakognitiv jarayonlarga ta'siri 466 Murodov Ulug'bek O'tkir o'g'li Maktabgacha ta'limda inklyuziv ta'limning tashkil etilishi 470 Mustofoyeva Muhabbat Husniddin qizi The Effectiveness of Art Therapy in Working With Children Experiencing Emotional Stress 473 Nargiza Khayrullayevna Ortikova, Laziz Azizovich Normuratov Maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarining musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirish mexanizmlari 477 Ortiqov Akmaljon Abdusalom o'g'li CLIL metodining O'zbekiston ta'lim tizimida qo'llanilishi 481 Qarshiyeva Sarvinoz Ural qizi The Use of Mobile Apps to Build Vocabulary Proficiency 486 Kosimov Sunnat Ravshan ugli Yoshlar tafakkurini rivojlantirish va ma'naviyatini oshirishda tasviriy san'atning o'rni 490 Quvonchbek Abduxamidov Axborot texnologiyalari ta'sirida san'at tushunchasining o'zgarishi 494 Rajabova Laylo O'tkir qizi Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari 498 Ramozonova Bahoroy Sadriddinovna Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini shakllantirishda innovatsion yondashuvlarning pedagogik asoslari 501 Yusufzoda Shabnami Yunus, Rashidova Saida Ravshonbek qizi Axborot texnologiyalarini fizika darslarida qo'llash 506 Raxmanov Valijon Turdaliyevich, O'razaliyev Alijon Xasan o'g'li Axborot xavfsizligini o'qitishda sun'iy intellektdan foydalanish afzalliklari 510 Raxmetova Lazzat Eshitishda nuqsonli bo'lgan bolalarning psixologik xususiyatlarining o'ziga xosligi 513 S. A. Mamatisayeva Androgogik yondashuvning integrativ metodikasi 517 Sattorova Shaxlo Axadovna Gendered Language in Uzbek and English Media Discourse 520 Sultonova Charos Iskandar kizi Maktabga tayyorlov yoshdagi bolalarda ijtimoiy ekologik dunyoqarashni shakllantirishga ta'sir qiluvchi omillar 527 Suyunova Matluba Abdusaidovna Empatiya shifokor–pasiyent munosabatida: tibbiyot talabalarining psixologik tayyorgarligi 531 Tajiboyeva Odinoxon Rustamjon qizi, Qurbonova Fotima Farhodjon qizi Modern Approaches to Teaching Grammar 534 Tuychiyev Azamat Farkhod ugli The Importance of Psychological Preparation of Preschool Children for School Education 538 Turamov Muhammadzohid Rustamjon o'g'li
-------------------------------------	---



Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachi-pedagoglarining kasbiy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish	541
<i>Xabibullayeva Sayyoraxon Maxamadali qizi</i>	
Imkoniyati cheklangan va sog'lom bolalar faoliyatida universal ta'limning imkoniyati	544
<i>Xolmatova Sarvinoz Raxmatilla qizi</i>	
Kurashchilarning umumiy va maxsus sport tayyorgarliklari.....	548
<i>Xudoyberganov Javlonbek Soatboy o'g'li</i>	
Tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarida ekologik kompetentlik tushunchalarini rivojlantirish bosqichlari.....	551
<i>Yarova Gulhayo Fazliddin qizi</i>	
Arxitektura va dizayn yo'nalishi bitiruvchilarini kasbga yo'naltirish vositasida axborot almashish jarayonlarini optimallashtirish metodikasini takomillashtirish.....	555
<i>Kuchimov M. K.</i>	
Yuqori sinf o'quvchilarining ma'naviy kompetentligini jadidlarning pedagogik qarashlari asosida shakllantirish metodikasi (Temurbeklar maktablari misolida)	559
<i>Quldashv Murodjon G'aniyevich</i>	
Лингвистическое исследование влияния социальных сетей на синтаксические изменения в языке современного поколения.....	562
<i>Шавилова Наталья Сергеевна</i>	
Boshlang'ich sinf o'qituvchisining nutq madaniyati.....	566
<i>Islamova Dilfuza Dilshodovna, Gulimbayeva Barno</i>	
Особенности гражданского воспитания обучающихся в системе "школа-маҳалля" в Узбекистане ...	570
<i>Хайдаров Шавкат Шамсиддин угли</i>	
Mantiqiy masalalarni bajarishning metodik usullari	575
<i>Tosheva Yulduz</i>	
Bo'lajak ofitserlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda pedagogik-psixologik omillar (jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'linmalari misolida)	579
<i>Yarmatov Akbar Normurotovich</i>	
Yosh harbiy xizmatchi ofitserlarda muloqot madaniyatini samarali shakllantirish muammosining xorijiy tadqiqotlardagi talqini	582
<i>Matyakubov Elyor Rajapovich</i>	



MAKTABGACHA TA'LIMDA ESTETIK TARBIYA BERISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Altibayeva Gulbaxor Majitovna

Termiz davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta'limda tarbiyani tashkil etish
kafedrası o'qituvchisi

ORCID:009-0006-02899576

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim jarayonida estetik tarbiyaning mazmuni, maqsadi va ahamiyati yoritilgan. Estetik tarbiyaning bolalar shaxsini har tomonlama kamol toptirishdagi o'rni, ularning badiiy didi va go'zallikka bo'lgan munosabatini shakllantirishdagi pedagogik yondashuvlar tahlil qilingan. Tadqiqotda estetik tarbiyani amalga oshirishda tarbiyachining o'rni, ta'lim muhitining estetik jihatdan tashkil etilishi hamda san'at, musiqa va tasviriy faoliyat orqali bolalar ijodkorligini rivojlantirish usullari bayon etilgan. Maqola maktabgacha ta'lim tizimida estetik tarbiyani takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: estetik tarbiya, maktabgacha ta'lim, badiiy did, ijodkorlik, pedagogik asoslar, estetik muhit.

Abstract: This article examines the content, purpose, and significance of aesthetic education within the preschool education process. It analyzes the role of aesthetic education in the holistic development of children's personalities, as well as pedagogical approaches to shaping their artistic taste and appreciation of beauty. The study highlights the educator's role in implementing aesthetic education, the aesthetic organization of the learning environment, and methods for fostering children's creativity through art, music, and visual activities. The article also offers practical recommendations for enhancing aesthetic education in the preschool education system.

Key words: aesthetic education, preschool education, artistic taste, creativity, pedagogical foundations, aesthetic environment.

Аннотация: В данной статье раскрываются содержание, цели и значение эстетического воспитания в процессе дошкольного образования. Анализируется роль эстетического воспитания в всестороннем развитии личности ребёнка, а также педагогические подходы к формированию его художественного вкуса и отношения к прекрасному. В исследовании рассматривается роль воспитателя в реализации эстетического воспитания, эстетическая организация образовательной среды, а также методы развития творческих способностей детей через искусство, музыку и изобразительную деятельность. В статье приведены практические рекомендации по совершенствованию эстетического воспитания в системе дошкольного образования.

Ключевые слова: эстетическое воспитание, дошкольное образование, художественный вкус, творчество, педагогические основы, эстетическая среда.

KIRISH

Maktabgacha ta'limga qo'yilayotgan zamonaviy talablar uning pedagogik jihatlarini yangilashni, maktabgacha yoshdagi bolalarga beriladigan ta'lim-tarbiya ishlarini jamiyatda yuz berayotgan o'zgarishlar hamda ilgari surilayotgan ijtimoiy talablar asosida takomillashtirib borishni taqozo etadi. Bunda, avvalo, jarayonning nazariy va amaliy asoslarining mantiqiy bog'liqligi, yosh avlodning intellektual, ma'naviy-axloqiy, jismoniy va estetik jihatdan hayotga tayyor shaxslar bo'lib yetishishlari uchun zarur pedagogik sharoit hamda ta'lim mazmunini shakllantirish jamiyat taraqqiyotining muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash tizimining samarali faoliyat yuritishini ta'minlash uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlarida hamda oilada ularning keng qamrovli faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi pedagogik sharoit yaratish zarur. Bu esa bolalarda atrof-olamni va undagi voqea-hodisalarni anglash ko'nikmalarini shakllantirish orqali ularning maktab ta'limiga tayyor bo'lishini, shu jarayonda zarur bo'ladigan sobitqadamlik, g'oyaviylik, tengdoshlariga do'stona munosabat, ularni tushunish, mehnatsevarlik kabi ma'naviy-axloqiy sifatlarning rivojlanishini ta'minlaydi.

Ayniqsa, tasviriy faoliyat mashg'ulotlari bu borada keng imkoniyatlarga ega. Bolalarni rasm ishlash texnikasiga o'rgatish hech qachon birdaniga amalga oshmagan. Bolalarbop rasmlarning dastlabki tadqiqotchilari

– Korrodo Richchi, Liberti Tedd, M. Bexterev kabi olimlar bolalar ijodiyoti rivojlanishining o'ziga xos jihatlarini ta'kidlab, ularni rasm ishlashga o'rgatish zarurligini uqtirib o'tganlar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bolalarga rasm ishlash texnikasini maxsus mashqlar tizimi orqali o'rgatish g'oyasi birinchilardan bo'lib italiyalik san'atshunos Korrodo Richchi tomonidan ilgari surilgan. U bolalarning rasm chizish ko'nikmalari shakllanmaganda, kattalar ham ularning bilim saviyasi darajasida qolib ketishlari mumkinligini ta'kidlagan. Filadelfiyadagi Badiiy ishlab chiqarish maktabi direktori, akademik Liberti Tedd esa qo'lning chaqqonligi va uning harakatchanligini tasvir mazmunini ifodalashning muhim sharti sifatida e'tirof etgan. Uning fikrini qo'llab-quvvatlagan holda aytish joizki, qo'lning chaqqonligi rasm ishlash texnikasini egallash, keng ma'noda bolalarda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirish va rassomlik mahoratini rivojlantirish uchun zarur omildir.

Shularni inobatga olgan holda Liberti Tedd rasm chizish jarayonida qo'l harakatlarini rivojlantirishga mo'ljallangan maxsus mashqlar tizimini ishlab chiqdi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun yaratilgan bu mashqlarni bolalar katta qiziqish bilan bajaradilar. Mashqlar tizimi faqat geometrik shakllarni chizishga emas, balki tabiiy unsurlarni tasvirlashga ham yo'naltirilgan bo'lib, bu orqali bolalarning tabiatga bo'lgan qiziqishlarini hamda kuzatuvchanliklarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv O'zbekiston sharoitida ham bolalarning amaliy san'at – naqqoshlik turlarini o'rganish orqali olamni anglash ko'nikmalarini shakllantirishda samarali qo'llanishi mumkin. Zero, naqqoshlik san'ati tabiiy go'zallikni estetik o'zlashtirish asosida, shakllarni stilizatsiya (badiylashtirish) qilish vositasida yaratiladi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, bolalarning tasviriy faoliyati, ularning tasviriy san'atning nazariy va amaliy asoslarini egallash jarayoniga oid mutaxassislarining turlicha qarashlari mavjud. Ayrim olimlar fikricha, bolalarning tasviriy faoliyatiga kattalarning bevosita aralashuvi maqsadga muvofiq emas.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bolalarning o'ziga xos qobiliyatlari vaqt o'tishi bilan o'z ta'sir kuchini yo'qotishi mumkin, deb hisoblagan pedagogik yo'nalishlar mavjud. Bu ta'lilot "erkin badiiy tarbiya" nomi bilan mashhur bo'lib, XX asr boshlarida umumiy o'rta ta'lim tizimidagi "Rasm" (hozirgi "Tasviriy san'at") mashg'ulotlariga tatbiq etishga urinishlar ham kuzatilgan. Bir guruh pedagoglar, jumladan K. M. Lepilov, Ye. V. Rezigroev va I. Beer bolalarga ta'lim berishda rasm chizish texnikasini o'rgatishni ma'qullagan. Bolalarga rasm chizish texnikasini o'rgatishga qarshi bo'lgan olimlarga javoban K. M. Lepilov shunday yozadi: "Ba'zi birovlar bolalar – tugal rassomlardir, deb aytishadi. Agar ana shu nuqtayi nazardan qaraydigan bo'lsak, ularni umuman o'qitish kerak emas. O'z holiga tashlab qo'yilgan bola ma'lum bo'sag'ada to'xtab qoladi, o'zlari uchun aniq, sevimli bo'lgan mavzu va chizmalarda qolib ketadi, ilgarilab bormaydi. Boshqa tomondan ular grafik savodxonlikka ega bo'lmaydilar". Lepilov bolalarni o'qitish zarurligini asoslab, rahbarning bolalarga turli materiallarning o'ziga xos xususiyatlarini tushuntirishi, ular bilan ishlash ko'nikmalarini o'zlashtirishlariga yordam berishi lozimligini ta'kidlaydi. Masalan, bolalarga mo'yqalam va bo'yoqni berib, ularni qanday aralashtirishni, qog'ozga surtish texnikasini ko'rsatish va izohlash mutaxassis tomonidan amalga oshirilishi kerak.

Nemis olimi R. Myuller badiiy tarbiyani yaxlit ravishda rivojlantirish, jumladan tasviriy faoliyatni takomillashtirish imkoniyatlarini tahlil qilib, bolalar bilim, malaka va iqtidorni uyg'unlikda egallashi zarurligini ta'kidlaydi. Muallif bu uyg'unlikni bolalarning ko'rganlarini tasvirlash qobiliyati bilan bog'laydi. Tasvirni hosil qilish uchun bolalarda narsalar va atrof-muhit hodisalari haqidagi tasviriy xususiyatlarni kuzatish, muhim belgilarni ajratish, predmetning o'ziga xos jihatlarini eslab qolish ko'nikmasini shakllantirish zarur. Ana shu asosda bolalarda nimaning rasmini chizish kerakligini oldindan tasavvur qilish malakasi rivojlanadi. R. Myuller fikricha, yuqoridagi komponentlar yetarli emas – bola texnika, materiallar, bo'yoqlarning badiiy-texnik qo'llanilishini va ulardan foydalanish tartibini bilishi kerak. U, shuningdek, bolalar qo'l harakatlarini o'rganib, ularni boshqarishni o'zlashtirishi lozimligini ta'kidlaydi. Chizish texnikasi va usullarini bilish, ulardan foydalana olish bolalarga ifodali vositalardan samarali foydalanish imkonini beradi. Tasviriy faoliyatni o'rganish uchun nemis pedagog olimi Gegelning qarashlari ham muhimdir. U badiiy tasvir muammosini uch yo'nalishda tahlil qiladi:

- 1) borliq va voqelikni tasavvur qilish va ifodalash;
- 2) yaratilgan rasmning yaxlitligini tasvirlash;
- 3) badiiy-texnik vositalarning vazifasini to'g'ri talqin qilish hamda ularning qo'llanishini farqlay bilish.

Bolalarni o'rab turgan chiroyli narsalarning o'zi ularga yetarlicha ta'sir etmaydi. Shuning uchun bolalarni go'zallikni ko'ra bilishga, qadrlashga, baholay olishga o'rgatish zarur.



Tarbiyachi bolalarning diqqatini tozalik, mebelning joy-joyiga qo'yilishi, chiroyli idishlar va gullarga qarashi lozim. Har bir yangi narsa yoki bezak bolalar bilan birgalikda muhokama qilinadi. Eng muhimi – barcha narsalar bolalarda estetik zavq uyg'otadigan tarzda ko'rsatilishi kerak. Bolalarda estetik zavqni shakllantirish uchun ular kuzatayotgan narsaning mazmuni va ahamiyatini tushuntirish zarur. Bolaning hislariga ta'sir etish uchun bu yetarli emas – bu jarayonda tarbiyachining shaxsiy namunasining o'рни beqiyosdir. Tarbiyachining o'zi go'zallikdan zavqlansa, ortiqcha so'zsiz bolalarda estetik kechinmalarni uyg'ota oladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni estetik tarbiyalashda san'atning turli turlari va janrlaridan – musiqa, rassomchilik, haykaltaroshlik, xalq amaliy san'ati, adabiyot va boshqalardan – foydalaniladi.

“Go'zallik quvonchisiz mehnat quvonchi bo'lmaydi”, – deb yozgan edi V. A. Suxomlinskiy, – “ammo bu yerda go'zallik bola ega bo'layotgan narsa emas, balki u yaratayotgan narsadir. Mehnat quvonchi – bu turmush quvonchidir”. San'at insonda yuksak estetik zavq, quvonch va ma'naviy boyish manbai sifatida xizmat qiladi. Badiiy asar kishining his-tuyg'ulariga ta'sir etsa, hissiy kechinmalar fikrlashni uyg'otadi. Qiziqarli ertak yoki rasm bolada fikrlar o'yinini keltirib chiqaradi.

S. Ya. Marshak bu haqda shunday degan edi: “Bolalar ‘Qizil shapkacha’ ertagini yigirma marta eshitishga tayyor, chunki ertakning tuzilishi aniq, mantiqi izchil, har qanday bola o'zini ertak qahramoni o'rniga qo'ya oladi va ‘Qizil shapkacha’ni o'ynay oladi”. San'atning barcha turlari – adabiyot, musiqa, rassomchilik, haykaltaroshlik, teatr, kino – bolalar uchun tushunarli shaklda ta'sir etadi. Gilamchilik, to'qimachilik, kulolchilik, zardo'zlik, kashtachilik, popochilik, badiiy oyna, metall patnislar, to'qilgan va tikilgan bezakli buyumlar tasviriy san'atning manzarali shakllariga kiradi. Bundan tashqari, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida har bir viloyat, o'lka va respublikaning milliy madaniy merosidan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ta'lim-tarbiya jarayonida o'zbek xalq amaliy san'ati namunalariidan foydalanish katta ahamiyatga ega. O'zbek naqshlari tushirilgan chiroyli guldor matolar qo'g'irchoqlar uchun ko'ylak, oyna pardalari, dasturxon kabilar tayyorlashda qo'llanilishi mumkin. Musiqa bolalarning kayfiyatini ko'taradi, ertalabki badantarbiya mashg'ulotlarida yangray boshlaydi. Yilning quruq va issiq mavsumlarida ekskursiya, sayr va o'yin vaqtlarida ashulalar ijro etilishi bolalarni bir-biriga yaqinlashtiradi, ularning ruhini ko'taradi. Maydonchada mehnat qilish jarayonida ijro etilgan ashula harakat ritmini uyg'unlashtiradi, bolalarga mehnat quvonchini bag'ishlaydi. Bolalarda estetik idrokning rivojlanishi uchun ularni haqiqiy san'at asarlari bilan tanishtirish zarur. Radio va televizorda san'at ustalari hamda tengdoshlari ijro etgan asarlar bolalarning estetik rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Ashula aytib o'yinga tushishda xalq ijodi asarlaridan foydalanish bolalarni axloqiy-estetik tarbiyalashda nihoyatda qimmatli vositadir. Bolalar xalq kuylari va obrazlarini ijro etish jarayonida xalq tili va kuyining ohangdorligi, ravonligini bilib oladilar, bu esa ularda vatanparvarlik hissini tarbiyalaydi, musiqiy didni shakllantiradi hamda ularni zamonaviy va klassik kuylarni idrok etishga tayyorlaydi.

Ashula va raqsga o'rgatishda faqat to'g'ri aytish yoki to'g'ri harakatni bajarish emas, balki ifodali aytish, yengil, chiroyli va latofat bilan raqsga tushishga ham o'rgatiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida o'tkaziladigan bayramlar bolalarga chuqur ta'sir etadi. Bayramning tarbiyaviy kuchi va o'ziga xosligi uning g'oyaviy hamda estetik mazmuni san'atning turli ko'rinishlari bilan uyg'un bog'liqligida namoyon bo'ladi. Har bir bayram o'z g'oyasiga ega bo'lib, u bolalarga yorqin obrazlar orqali estetik va ma'naviy ta'sir ko'rsatadi. Estetik tarbiyaning samarali vositalaridan biri qo'g'irchoq teatridir. Uning kuchli ta'siri soddaligi, jo'shqinligi, o'yinchoqligi hamda badiiy so'z, musiqa, ashula, raqs va tasviriy san'at elementlarining uzviy uyg'unligidadir. Qo'g'irchoq teatrida bolalar nafaqat tomosha qiladilar, balki unda o'zlari ham qatnashadilar. Bu ularning dramatik qobiliyatini, nutqini, tashabbuskorligini rivojlantiradi va hayotiga quvonch bag'ishlaydi. Diafilm ko'rsatish ham bolalarning estetik didini o'stirishda muhim vositalardan biridir. Diafilmlarni adabiy matn bilan birga o'qib berish film mazmunini bolalar uchun yanada to'liq va ta'sirchanroq qiladi. Shuningdek, qo'g'irchoq teatri, soya teatri ko'rsatish ham estetik tarbiyaning ajralmas qismidir. Tarbiyachi qo'li yordamida jonlantirilgan qo'g'irchoqlar bolalar uchun tanish bo'lsa-da, ular badiiy so'z va musiqiy ifoda bilan uyg'unlashganda ertak qahramonlari bolalar ko'z o'ngida tiriladi, bu esa ularning obrazlarni chuqurroq idrok etishiga yordam beradi. Badiiy didni shakllantirishda kitoblar muhim o'rin tutadi. Kitoblar bolalarning yoshiga, mavzuga, mazmunga, bayon uslubiga va bezaklariga mos bo'lishi lozim. Ayniqsa, 2–3 yoshli bolalar uchun chiqarilgan kitoblarda so'zlardan ko'ra rasmlarning ta'siri kuchliroq bo'ladi. Bola kitobchadagi rasmlarni qayta-qayta ko'rib, o'z do'stlariga, kattalarga yoki qo'g'irchoqiga “o'qib” berish orqali mazmunni o'z xotirasida mustahkamlaydi.

Kitobdagi chiroyli, yorqin tasvirlar bolalarning badiiy didini tarbiyalaydi. Kattalar mehnati, qahramonlik, Vatanga muhabbat, do'stlik, mehr-oqibat kabi mavzularda yozilgan hikoyalar bolalarga tushunarli va ularning axloqiy-estetik rivojiga xizmat qiladi. Quadrat Hikmat, Mirmuxsin, Shukur Sa'dulla, Quddus Muhammadiy kabi bolalar yozuvchilarining she'rlari ularda ijobiy his-tuyg'ularni uyg'otadi, yashashga o'rgatadi, dunyoqarashni shakllantiradi va ona tili boyligini his qilishga yordam beradi. Bolalarning eng sevimli janri – ertakdir. Ertakning

afzalligi shundaki, unda uzoq mulohaza yuritish talab etilmaydi, qahramonlar bolaga yaqin va tanish, tili esa jonli va hayotiy bo'ladi. Eng muhimi, tarbiyachining o'zi badiiy adabiyotni sevishi, uni to'g'ri talqin qilishi, nasriy asar va she'rlarni ifodali o'qiy bilishi zarur.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarda estetik rivojlanish ularning shaxsiy taraqqiyoti va kelajakdagi intellektual, ijodiy, ijtimoiy hamda emotsional muvaffaqiyatlari uchun muhim omil hisoblanadi. Nazariy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, bolalarni estetik rivojlantirishda ularning tabiiy qiziquvchanligi, tasavvuri va mustaqil fikrlashga bo'lgan ehtiyoji markaziy o'rinda turadi. Liberti Tedd, R. Myuller kabi olimlarning ilmiy qarashlariga asoslanib, kreativlikni rivojlantirishda bolalarga qulay psixologik muhit yaratish, ularning erkin fikrlash va tajriba qilishlariga imkon berish zarurligi ta'kidlanadi. Shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kreativlikni rivojlantirish uchun turli interaktiv usullar, o'yin texnologiyalari, ijodiy topshiriqlar va san'at faoliyatlari samarali vosita sifatida qo'llanilishi mumkin. Tarbiyachilarning innovatsion yondashuvlari, bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olish va ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash ham kreativlik rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Umuman olganda, maktabgacha yoshdagi bolalarni estetik jihatdan rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish ularning har tomonlama kamol topishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Nazarov, Q. (2016). Maktabgacha ta'limda estetik tarbiya asoslari. Toshkent: O'qituvchi.
2. Yo'ldosheva, N. va Qodirova, D. (2019). Maktabgacha ta'lim psixologiyasi va estetik tarbiya. Toshkent: Fan va texnologiya.
3. G'aniyeva, Z. (2020). Bolalar tasviriy faoliyatini rivojlantirish metodikasi. Toshkent: TDPU nashriyoti.
4. Лихачев, Б.Т. (2005). Педагогика: курс лекций. Москва: Академия.
5. Lee, L. & Chao, P.-J. (2023). "Perceptions of and Reflections on Aesthetic Education Training from the Perspective of Taiwanese Preschool Educators." *Education Sciences*, 13(1), Article 96. DOI:10.3390/educsci13010096.
6. Azizova, Z.F. (2022). "Diagnosing the Level of Aesthetic Education of Preschool Children." *Czech Journal of Multidisciplinary Innovations*, 10, pp. 77-79.
7. An, J. Y. (2023). "Research on Cultivating Aesthetic Literacy in Children's Literature for Preschool Education Modernization." *Curriculum and Teaching Methodology*, 6, pp. 74-78. DOI:10.23977/curtm.2023.062012.
8. Tian, T. & Isa, Z.B.M. (2024). "Exploration and Practice of Aesthetic Education in Early Childhood Education Activities." *DREAM – Journal of Digitainability, Realism & Mastery*, 3(09), pp. 61-74. DOI:10.56982/dream.v3i09.259.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.